

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSİTETİ
«PEDAGOGIKA FAKULTETI»

BT va STI yo'nalishi

13.417-guruh talabasi

Axmedova(*Abdullayeva*) *Maxfuzan*ing

BITIRUV MAJAKAVITY ISHLI

MAVZU:“Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulushni o'rgatishg innovatsion yondashuv”

Ilmiy rahbar:

O'qituvchi: Z. Otaxonova



MUNDARIJA

Kirish.....	3
1.Bob.Ulush tushunchasi va innovatsion metodlar haqida umumiy ma'lumotlar	
1.1- §. Qadimda ulushlarni kelib chiqishi.....	7
1.2-§. Boshlang‘ich sinflarda miqdorlar va ularning ulushlari bilan tanishtirish.....	13
1.3-§. Ulush va kasrlarning mantiqiy-didaktik tahlili.....	16
1.4- §. Innovatsion metodlar va ularni amalga tatbiq etish metodikasi.....	27
1-bob bo‘yicha xulosa.....	34
II. Bob. Boshlang‘ich sinflarda ulush mavzusini o‘qitish metodikasi	
2.1- §. Ulushlar va kasrlarni o`rgatishda amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi.	35
2.2- §. Innovatsion metodlar orqali ulush mavzusini o‘rgatish usullari.....	46
2.3- §. Tajriba –sinov natijalari.....	69
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	73
Umumiy xulosa.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	76

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Uzluksiz ta’limda raqobatga bardosh bera oladigan, intellektual jihatdan kuchli mutaxassislar tayyorlash asosiy vazifa bo‘lib, barcha ta’lim tuzilmasi hamda faoliyat muhitini o‘z ichiga oladi.

2016 yil “**Sog’lom ona va bola yili**” Davlat dasturida o‘qitish sifatini yanada yaxshilash, jumladan, 1-4-sinflar uchun psixo-fiziologik o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlari va darsliklarni qayta ko‘rib chiqish, o‘qitish jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasi muhim vazifa sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich ta’lim uzliksiz ta’lim tizimining muhim halqasi bo‘lib, uning rivojlanishi zamonaviy jamiyat talablariga asosan shakllanuvchi maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Ta’lim va tarbiya Respublikamizda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlanishining ustivor sohasi bo‘lib hisoblanadi. Bu esa Respublikamizning ilmiy, madaniy, iqtisodiy quvvatini rivojlanтирish, davlat, jamiyat va oila oldidagi o‘z mas’uliyatini anglaydigan, har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

“Ta’lim to‘g‘risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ni hayyotga tadbiq etib borish sohadagi islohatlarning hozirgi bosqichida ta’lim sifatini ko‘tarish bilan bir qatorda, boshlang‘ich ta’lim faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. 2004-2009 yillarda davlat umummilliy dasturining qabul qilinishi umumta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish va kelgusida o‘quvchi olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini uzlusiz ravishda oshirib borishlarini ta’minalash oldimizda turgan ustivor vazifaga aylandi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzlusiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi” deb ko‘rsatilgan. Ta’lim va tarbiyani istiqlol g‘oyalari asosida ma’naviyatni, savodxonlikni yuksak darajaga ko‘tarish – hamda jamiyatni ijtimoiy topshirig‘idir.

Buning ahamiyatini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o‘zida

mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muhim vazifasidir”¹ degan dasturiy fikrlaridan ham bilib olish mumkin. Ushbu vazifaning samaradorligi ayniqsa, maktab bog‘cha o‘quvchilarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularning bilim egallashdagi faolligini, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga borib taqaladi. Bunda o‘quvchilarning matematik tayyorgarligi jarayonini shakllantirishni maktab bog‘cha o‘quvchilarida dolzarbligi yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining buyuk mutafakkirlari uzoq o‘tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlari jahon fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi.

Buyuk allomalar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Unsurul Maoniy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqalar ta’lim tamoillarning jamiyat taraqqiyotidagi nazariy va amaliy ahamiyatini va yosh avlodni tarbiyalashda ta’lim tamoyillarni ko‘rsatib beruvchi boy ma’naviy meros qoldirganlar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili psixologik-pedagogik tadqiqotlarda boshlang‘ich sinflarda va bog‘chalarda o‘qitish samaradorligini oshirishning ilmiy tahlili birinchidan, axborotlarni boyitib borish orqali ta’lim mazmunini o‘zgartirish, didaktik elementlarni kattalashtirib o‘zlashtirish yo‘nalishlarida amalga oshirilgan. Boshlang‘ich sinf uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari (K.Qosimova, R.A. Mavlonova, L.Sh. Levenberg), o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar (M.I. Mopo, A.M. Pishkalo, L.Sh. Levenberg, N.U.Bikbaeva) va o‘quvchilar uchun, tajriba-sinov qo‘llanmalari (M.Ahmedov, N. Abduraxmonova, R.Ibragimov, Yu.M. Kolyagin, P.M. Erdniev) mualliflari mashqlar to‘plami (o‘quv materiallari) orqali boshlang‘ich mакtab o‘quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirish mumkinligiga to‘xtalib o‘tishgan. Didaktika va ta’lim metodikasining xususiy masalalariga bag‘ishlangan ishlarda (P.M.Erdniev, N.U.Bikbaeva, L.SH. Levenberg, R.A. Mavlonova, K.Qosimova va boshqalar)

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. 215-bet.

bu muammo umumiy holatda ko‘zda tutiladi, biroq maxsus tadqiqot predmeti sifatida ajratib olinmagan. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni tashkil etish vositasi sifatida ta’lim texnologiyasi, mustaqil ishlash, o‘yin elementlaridan foydalanish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Boshlang‘ich ta’lim nazariyasida kichik yoshdagi o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining mohiyati va uni tashkil etish uslubiyati mustaqil ishlash texnologiyasining ilmiy asoslangani bilan birga “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”ni ma’lum darajada takomillashtirib borish, malakaviy bitiruv ishimizning mavzusini “Ulushlarni o‘rganish metodikasi” deb nomladik.

BMI obyekti: Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlari jarayoni.

BMIning predmeti: Boshlang‘ich sinflarda ulush tushunchasini o‘rganish metodikasiga oid mashg‘ulotlari tizimi tashkil etadi.

BMI maqsadi: Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida ulush tushunchasini innovatsion ta’lim texnologiyalar orqali bolalar tasavvrini kengaytirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

BMIning nazariy ahamiyati: Oliy ta’lim nazariyasida va amaliyotida qonuniy hodisa sifatida innovatikaning yuzaga kelishi va tadrijiy rivojlanishi ochib berildi; pedagogik fenomen sifatida “mutaxassisning innovatsion tayyorgarligi” tushunchasi mohiyatining tavsifi keltirildi; ijtimoiy-pedagogik vaziyatda innovatsion tayyorgarlikning didaktik asoslari ishlab chiqildi; universitetdagi zamonaviy ta’lim jarayonlari sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining innovatsion tayyorgarligi tizimini ishlab chiqish muammolarini hal etish bo‘yicha nazariy-metodologik qoidalar va xulosalar aniqlandi.

BMIning amaliy ahamiyati: Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda ulush tushunchasini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi, agar;

- amallar bajarishga doir tasavvur komponentlari alohida-alohida tuzilib, matematikadan mashg‘ulotlar jarayonida ularning uzviy aloqalari ta’mirlansa.

- o‘quvchilarni olgan bilimlarini innovatsion texnologiyalar orqali o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi.

BMIning vazifalari:

1. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida ulush tushunchasini o‘rganish faoliyati shakllanganligining mohiyati va bosqichlarini tashxis qilish;
2. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda ulush tushunchasini o‘rgatish mazmuni va uni o‘rganish jarayonining texnologik shart-sharoitlarini aniqlash.

BMIning metodologik asosi sifatida ta’lim va boshqaruv sohasidagi shaxs nazariyasi, o‘qitish metodikasi faoliyati, psixologik va pedagogik qonuniyatları va yondashuvlar, umuminsoniy qadriyatlarga tayandik. Ishning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi birihchi prezidenti Islom Karimovning barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi dasturiy fikrlari tashkil etadi.

BMI metodlari mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganishga asoslangan nazariy va tarixiy tahlillar; tajribalar, kuzatishlar, anketa so‘rovlarini uyushtirish, suhbatlar Respublika foydalanilayotgan o‘quv qo‘llanmalari, darsliklarini didaktik tahlil qilish, o‘yin elementlari ishlanmalarini yaratish va sinab ko‘rish va h.klardan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishi maktab metod birlashma seminarlarida ma’ruza qilindi, ochiq darslar tashkil etilganligi bilan ishonchlilik darjasini tasdiqlandi.

BMIning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish 2 bob, 7 bo`lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

I.Bob. Ulush tushunchasi va innovatsion metodlar haqida umumiy ma’lumotlar.

1.1 - §. Qadimda ulushlarni kelib chiqishi.

Son tushunchasi kengaytirilishining birinchi bosqichi, ya'ni kasr son tushunchasining kiritilishi kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlanadi. Dastlabki vaqtarda kishilar kasr so'zini eshitmasa ham, birlik kasr $\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, \frac{1}{8}$ ya`ni yarim, chorak va nimchorakni turmush ehtiyojlarida tadbiq qilib kelganlar.

Misrliklarning eramizdan ilgari ikki minginchi yillarga oid qadimiy Axmes qo'llanmasida saqlanayotgan yodgorliklarda birlik kasrlar uchun alohida belgilar ishlatilganligi dalil bo'ladi.

Misrliklar dastlab asosi 2 bo'lgan kasrlarni bilganlar.

($\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, \frac{1}{8}, \frac{1}{16}, \frac{1}{32}$). Keyinchalik esa surati faqat bir bo'lgan birlik kasrni ishlatganlar. Ularning tekshirish metodlari va chiqargan xulosalarining asosiy qismlari turli xalqlarda ming yillar davomida saqlanib kelmoqda. Misrliklarning birlik kasr bilan hisoblash usuli Pifagor davrida yunonlarda, bular orqali o'rta asr sharq matematiklariga o'tadi.

Birlik kasr bilan hisoblash usulini Markaziy Osiyo matematiklarining arifmetik asarlarida uchratish mumkin. Bunga Muhammad Xorazmiy, Abul Vafo, Xosib Karxiy, Tusiy Ali Kuboviy va boshqalarning asarlari misol bo'la oladi. Oddiy kasrlarni tasvirlash va ular ustida amallar bajarish hozirgi usulda juda yaqin bo'lgan o'zaro savdo aloqalari natijasida, hindlarning oddiy kasr g'oyasi, o'nli pozitsion sistemasi bilan birgalikda, arablar orqali Markaziy Osiyoga o'tadi. Hindlarning o'nli pozitsion sistemasini birinchi bo'lib targ'ib qilgan Markaziy Osiyo matematigi Muhammad Xorazmiy o'zining arifmetika va algebraga doir asarlarida oddiy kasrlarni tasvirlash va ular bilan to'rt amal bajarish usullarini ko'rsatdi. Xorazmiyning keyingi davrlarda sharq matematiklaridan Abul Vafo, Hosib Karxiy, nasafi, Beruniy, Umar Hayyom, Tusiy, Nishopuriy, Kofiy va boshqalar oddiy kasrlar g'oyasini ilmiy va metodik tomonidan taraqqiy ettirganlar.

Arab tilida «kasr» so'zi sindirish ma`nosini bildiradi. Oddiy kasrning hozirgi ko'rinishda yozilishi qadimda hindlardan boshlangan. Hindlar kasrning

surati bilan mahrajning hozirgidek chiziq bilan ajratmasdan mahraj ustida surati,

5
aralash sondagi butunni esa surat ustiga yozilgan. Masalan: $5\frac{3}{4}$ kasr $\frac{3}{4}$ ko‘rinishda yozilgan. Muhammad Xorazmiy, Muhammad Nishopuriy va undan keyingi sharq matematikalari ham kasrni hindlar kabi tasvirlaganlar. XIII asrda Muhammad Nishopuriy va undan keyingi mualliflar aralash sondagi kasrni alohida ko‘rsatish uchun butunning tagiga chiziq chizganlar. Nihoyat, XVI asrdan boshlab Yevropada aralash son hozirgi ko‘rinishda tasvirlana boshlagan. Madrasada o‘qitilgan darsliklarda aralash sonning hususiy holi to‘g‘ri kasr ekanligini ko‘rsatish maqsadida aralash sonning butun xonasiga nol qo‘sish bilan to‘g‘ri kasr tasvirlangan. Masalan: $\frac{3}{4}$ va $\frac{5}{6}$ kasrlar bunday yozilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari Xorazmiy, Tusiy, Koliy va boshqalar surati faqat bir bo‘lgan kasrlarni maxraji 2 dan 11 gacha bo‘lgan to‘qqizta birlik kasrni arab tilida alohida nomlar bilan ataydilar. $\frac{1}{2}$ - nisf; $\frac{1}{3}$ – sulo; $\frac{1}{4}$ – rub; $\frac{1}{5}$ – xumo; $\frac{1}{6}$ – suds; $\frac{1}{7}$ – sub; $\frac{1}{8}$ – sumi; $\frac{1}{9}$ – tus; $\frac{1}{10}$ – chushr.

Eramizdan taxminan 3000 yil ilgari oltmishli sistemaga asos solgan bobilliklar maxraji 60 ning darajasidan iborat bo‘lgan kasrlarni kundalik extiyojlarida qo‘llaganlari ma`lum. Bobilliklar oltmishli sistemanig butun qismidan sonlarni o‘nli hisoblash sistemasida tasviriy belgi yordamida yozganlar.

Har qanday hisoblash sistemasi jamiyat talabiga qarab rivojlanib bordi. Oltmishli sistemaning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi astronomiyaga bog‘liq bo‘lib, bu sistema astronomiyadagi hisoblashlarda ishlatilgan. Shu sababli oltmishli sistema hisoblash sistemasi deb ataladi. Oltmishli hisoblash sistemasini rivojlantirishda Markaziy Osiyo matematiklari ham o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Muhammad Xorazmiy arifmetik asarlarida oltmishli pozitsion hisob sistemasini bayon bayon etadi. Oltmishli pozitsion sistema bilan butun va kasr sonlarni tasvirlash hamda ular ustida amallar bajarish usullarini ko‘rsatadi.

Sharq matematiklari Muhammad Xorazmiy, Abu Xasan Jiliy, An Nasafiy, Abul Vafo, Nasriddin Tusiy, Nizomiddin Nishopuriy va Jamshid Koshiylar bobilliklarning oltmishli sistemasini nazariy va metodik tomondan rivojlantirib, yagona absalyut oltmishli pozitsiya hisoblash sistemasini yaratadilar. Ular bu sistemada kasr sonlarni tasvirlash va ular ustida amallar bajarish usulini ko'rsatish bilan uni astronomiya va matematikaning turli tarmoqlariga sistemali tadbiq qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, bunday qadimiyo'lchovlar birliklari bilan o'quvchilarni tarixiy elementlar tarzida tanishtirib borish kerak. Masalan: boshlang'ich sinfda «metr» tushunchasini o'tayotganimizda, qadimda uning «gaz» deb ataladi, hozirgi kunda «metr» qabul qilinganligi haqida tushuncha berib, ularni taqqoslab ketilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lardi. Gaz 106 sm.ga teng ekanligini bolalar bilishlari kerak. Bunga o'xshagan o'lchov birliklarini tushuntirayotganda, qaysi qadimiy o'lchovlarga to'g'ri kelishi taqqoslab tushuntirilib borilsa, ularning kelgusi mustaqil bilim olishi uchun zamin yaratiladi. Buning uchun esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zлари matematika tarixi bilan yaqindan tanish bo'lishlari kerak. Shundagina biz jamiyat uchun har tomonlama yetuk shaxslarni tayyorlab beramiz.

Ko'paytirish amali va uning bajarilish usullari.

O'rtaOsiyo matematiklari, masalan Xorazmiy, Tusiy, Nishopuriy, Koshiy, Ali Kuvosiy va boshkalar ko'paytirish amaliga tashki ko'rinishdan qisman farq qiluvchi mazmun jihatidan esa bir xil bo'lgan ikki xil ta`rif beradilar. Nasriddin Tusiy ko'paytirishhamma vaqt ikki son orqali bajarilishini uqtirib va bulardan birini ko'payuvchi /mazrub/, ikkinchisini ko'paytiruvchi /magzub fixi/ nomi bilan atab, shunday ta`rif beradi: ko'paytirish butun sonlarni qo'shish amalidir, ya`ni ko'payuvchini ko'paytuvchining birligi qadar takrorlab qo'shishdir. Tusiy o'z ta`rifining mazmunini tushuntirish uchun bir xonali sonlarni ko'paytirishga misollar keltiradi. Masalan: 3 ni 4 ga ko'paytirish-bu 3 ni 4 marta yoki 4 ni 3 marta takrorlab qo'shish.

G‘arbiy Yevropada Petr Ramus o‘zining 1586 yili yozgan arifmetika darsligida ko‘paytirish qo‘shish amalining xususiy xoli ekanligini qayd etadi.

O‘rta asr Sharq arifmetikasida ko‘paytirish amali qo‘shish vaayirish amallari kabi asosiy amal hisoblanib, bu amalni bajarishning turlicha usullari boshqa amallarga nisbatan juda ko‘p. Ko‘paytirishning hozirgi ko‘paytirish usuliga yaqin usulini qadimgi hindlar yaratganlar.

Muhammad Xorazmiy arifmetikaga doir asarida, xindlarning ko‘paytirish usulini metodik jihatdan tushunarli qilib beradi, ya`ni har bir xususiy ko‘paytmani ko‘payuvchining raqamlarini o`chirib yozadi. Nasafiy va Nasriddin Tusiyalar ham ko‘p xonali sonni ko‘p xonali songa ko‘paytirishni Muhammad Xorazmiy yo`li bilan bayon etadilar.

Keyingi davrlarda madrasada o‘qitilgan darsliklarda ko‘paytirish Xorazmiy, Nasaviy va Tusiyalar usulida hisoblash taxtasida bajarilib, natija ko‘payuvchining raqamlarini uchirib urniga yozilmasdan, oraliqdagi hisoblashlar qog‘ozda ko‘rsatiladi.

Jamshid Koshiy amalni hozirgi usul bo‘yicha bajaradi. Faqat u yangi o‘rganuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun dildagi o‘nlikni yozib, so‘ngra hamma xususiy ko‘paytmalarni qo‘shadi. Koshiy bu usulning boshka ko‘paytirish usullariga nisbatan sodda ekanligini va uni o‘zi kashf qilganligini bayon qiladi. O‘rta asr Sharq matematiklarining turli ko‘rinishdagi ko‘paytirish usullari bir necha bosqichdan so‘ng hozirgi ko‘paytirish usuliga kelganligini ko‘rish mumkin. Xuddi boshka ko‘paytirish usullari kabi jevak shaklida ko‘paytirish ham bir necha ko‘rinishdan so‘ng hozirgi ko‘rinishga kelgan. Birinchi ko‘rinishda ko‘paytiruvchilarni vertikal chizik buyicha unga yozib, xususiy ko‘paytmalar va ular raqamlarining yigindisini chap tomonga uzun chizik bilan ajratib yoziladi. Demak, Tusiyuning "jevak shaklida ko‘paytirish" usuli ma`lum taraqqiyot davridan keyin ko‘paytuvchilarning yuqori xonasidan boshlab ko‘paytirishga va bundan asta sekin hozirgi usuliga o‘tadi.

Yuqoridagi ko‘rib chiqilgan ko‘paytirish usullari yunonlarning "krest usuli"ga vaxindlarning birdaniga ko‘paytirish usullarigao‘xshaydi. Ular hozirgi ko‘paytirish

usulidan fark kilishi bilan birgaogzaki hisoblash, ortiqcha yozish talab qilmaydigan usullardir.

Bo‘lish amali va uni bajarish usullari

O‘rta Osiyo matematiklari bo‘lish amaligaasosan, ikki xil ta`rif beradilar. Bir guruh olimlar Muhammad Xorazmiyning bo‘lish amaliga bergen ta`rifi asosida "Bo‘lish ko‘paytirish amaligao‘xshash va uning teskarisidir", deb fikr yuritsalar, ikkinchi bir guruh olimlar bo‘lish amaliga "umumiylar" nomi bilan son tushunchasini kengaytirish asosida ta`rif beradilar.

O‘rta Osiyo matematiklari bo‘lish amali boshqaamallarga nisbatan murakkab ekanini va bu amalni o‘zlashtirish uchun o‘tilgan amallarni yaxshi bilish zarurligini uqtiradilar.

Tusiy bo‘lish amalini o‘rganishni quyidagi uch bosqichga bo‘ladi:

1. Bir xonali sonni bir xonali songa bo‘lish.
2. Ko‘pxonali sonni bir xonali songa bo‘lish.
3. Ko‘pxonali sonni ko‘p xonali songa bo‘lish.

Bo‘lish ko‘paytirish amaligao‘xshash asosan ikki xil "Satx" va "Jadval" usulida bayon etiladi. Satx usuli Xorazmiy, Nasaviy va Tusiyalar "mashhur" usulning qog‘ozga ko‘chirilgan ko‘rinishidir". Bular arifmetik amallarni taxtada qum yoki tuproq sepib ogzaki hisoblashdan foydalaniib bajargan. Taxtada raqamlarni uchirib urniga yozish va bo‘luvchining raqamlarini so‘rish oson bo‘lganligi uchun bu usul o‘z davrida sodda va qulay hisoblangan. Keyingi, asrlarda, hisoblash asta-sekin satx usulida qog‘ozda hisoblashga o‘tishi bilan mashhur usul o‘zining sodda va qulayligini qisman yo‘qotgan. Xorazmiy va Tusylarning mashhur usuli ma`lum davr ichida, bir oz o‘zgartishlar kiritilgandan so‘ng, bo‘lishning "Satx" usuliga o‘tilgan. XV asrda Mahmud Qozizoda Rumiy berilgan sonlarni mashhur usulda yozib, bo‘lish bosqichida bo‘luvchining raqamlarini suradi. Bulinmani bo‘luvchining tagiga, oraliqdagi hisoblashlarni bo‘linuvchining ustiga yozadi. Masalan, 924 ni 6 ga bo‘lish quyidagicha: Bo‘linma - 154

Juda uzoq rivojlanish davri natijasida to‘plamlarni taqqoslash uchun vositachi to‘plamlarni taqqoslash uchun mayda toshchalarni, chig‘anoqlarni qo‘llay

boshladilar. Bu vositachi to‘plamlar endi natural sonlar tushunchasi kurtaklarini namoyish qila boshlagan bo‘lsa-da, biroq bu bosqichdahamxali son sanaladigan to‘plamlardan ajralmagan edi. Masalan, ba`zi kabilalarda beshta unsurdan iborat to‘plamlar sanog‘i "qo‘l" so‘zi bilan, yigirmata buyumdan iborat to‘plamlarning sanog‘i "odam" so‘zi bilan belgilangan. Vaqt o‘tishi bilan sonlar nomlana boshlagan. "Son" tushunchasi rivojlanishning eng muhim bosqichi hisoblangan. Biz birlik tushunchasini yaratgan inson dahosi karshisida bosh egishimiz kerak. Son vujudga keldi, u bilan birga matematika vujudga keldi".

Shunday qilib asta-sekin "natural son" atamasi kirib keldi. Buni birinchi bo‘lib taxminan 480-542 yillarda rimlik olim A.Boetsiy qo‘llagan.

Natural sonlar deb, buyumlarni sanashda qo‘llanadigan sonlargaaytiladi. Buni albatta biz boshlang‘ich sinfda qo‘llaymiz. O‘quvchilar ongini shunday singdirib borishimiz kerakki, raqam nima? Son nima? Buni bir-biridan ajrata bilsinlar.

Qadimgi zamonlarda turlicha hisoblash tizimlari bo‘lgan.

Masalan: 5 talab /qo‘lning barmoqlari/, 10 talab /ikki qo‘lning barmoqlari/, 20 talab /qo‘l oyoq barmoqlari/, 60 lik /qadimgi bobilliklarda/ sanoq tizimlari ishlatilgan.

12 soni /Frantsiya vaGruzinlarda/ pozitsion tizim o‘nlik asosda bo‘lib qadimgi Hind matematiklar kashf etgandan keyin VIII asrga kelib Muhammad-al Xorazmiy uzining "Hind hisobi" risolasida keng ommaga tushunarli qilib tadbiq etdi.

XV asrda Koshiy o‘nlik pozitsion sistemada o‘nli kasrlarni kashf etadi. Raqamlarni yozish turli xalqlarda turlichabo‘lgan. Alifbo tartibida nomerlash uncha katta bo‘lмаган sonlar, aytaylik 1009 gacha qulaydir, biroq ko‘p xonali sonlarni nomerlash juda noqulay bo‘lib, ulardan amallar tuzish yana ham qiyin.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bu son yozuvlari tizimi mukammallahib bordi. Biroq alifbo tartibida nomerlashning ayrim qoldiqlari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Masalan, biz ko‘p hollarda modda (punkt) larni hozir ham harflar bilan belgilaymiz. To‘g‘ri, harflar faqat izchillikni ifodalashga xizmat qiladi, ammo miqdorni belgilay olmaydi. Biz bu harflar bilan biror matematika bilan bog‘lik ishni amalga oshira olmaymiz.

Qadim vavilonlar sonlarni butunlay boshqacha yozganlar. Ular ikki belgidan: 1 ni ifodalash uchun to‘g‘ri pona- V dan, o‘nni ifodalash uchun < yotiq ponadan foydalanganlar. Masalan, 32 soni shunday yozilgan <<<VV.

Bu berli ular juda katta sonlarni ifodalash uchun qo‘llanilar edi. Bu narsalar yuqori sinflarda o‘rganiladi. Sonlarni vaviloncha yozish tizimi keyinchalik Hindistonga o‘tib, u yana ham takomillashtiriladi. Sonni ifodalash uchun (o‘tkir narsa bilan yerga yoki taxtaga) ustunlar natijada o‘nlik darajalar hosil bo‘lgan: birinchi ustunga birliklar qo‘yilgan, ikkinchi va uchinchi ustunga yuzliklar va h.k. Agar biron-bir darajaning birliklari bo‘lmasa, tegishli ustun bo‘sh qoldirilgan (46. 213-b). Asta-sekin bo‘sh ustunlar o‘rniga nol qo‘yila boshlagan.

Son yozuvining yangi tizimi Hindistondan butun dunyoga yoyila boshlaydi. Bunda bir xalq xindlardan raqamni eskicha yozishni qoldirib faqat sonni ifodalash yulini qabul qilgan bo‘lsa, boshqalar raqam yozilishini ham qabul qilganlar.

Hindcha nomerlash Yevropa mamlakatlariga X-XIII asrlarda arablar tomonidan kiritilgan. Shuning uchun arabcha raqamlar hozirgacha ham saqlanib kelmoqda. Biroq u ham birdaniga qabul qilinmagan. Deyarli XVIII asrga qadar ham bu son yozushi tizimini qo‘llash rasmiy hujjatlar uchun ruxsat etilmagan. Biroq xindcha nomerlash ustunligi tufayli u asta sekin boshqa tizimlarni siqib chiqaradi.


1.2- §. Boshlang‘ich sinflarda miqdorlar va ularning ulushlari bilan tanishtirish .

O‘quvchilarni ulushlar bilan tanishtirish dasturga binoan 3-sinfdan boshlanadi. Ulushlarning hosil bo‘lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushiga ko‘ra sonning o‘zini topish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi va uning yozma ko‘rinishi tasavvurlariga ega bo‘ladilar. Ulush tushunchasi geometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog‘langan.

Ulush tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo‘laklarga bo‘lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang‘ich sinfdan oldin,

ya'ni maktabgacha yoshdayoq ulush tushunchasining boshlang'ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo'laklarga bo'lib ko'rgan va boshlang'ich tushunchalarni olgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan, ularning yozilishi bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, sonning ulushlari va ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarni yechish ko'zda tutiladi. Aytib o'tilgan barcha masalalar ko'rgazmali qilib ochib beriladi.

Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching. Gap qaysi miqdor haqida ketayapti?




2. Miqdorlarning ulushlari bilan tanishtirish metodikasi


Yuqorida ko'rdikki, 3-sinfda birning ulushlari, ya'ni $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ va hokazo ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Ulushlarni o'rgatish deyarli ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz, geometrik shakl, cho'p, qog'oz va boshqa atrofdagi narsalarni olish mumkin.

Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, ba'zan teng 2 bo'lish, yordamida Ulush hosil qilinadi. SHunga mos olmani teng bo'limgan 2 bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, Ulushni hosil qilmaslikni tushintirish kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lgandagina Ulush son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim.


Konsert zalida 2 ta surnaychi, surnaychiga nisbatan 5 ta ko'p karnaychi bor. Karnaychi va surnaychi qancha bo'lsa, shuncha doirachi bor. Konsert zalida doirachilar soni nyechta? Masala tuzing va yeching.



Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar, hamda uning ba'zi xossalarini keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zaro tengligiga, hamda tomonlarining ham o'zaro tengligiga asoslanib, shuningdek kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Shuningdek, boshqa o'quvchilarga doirani, ba'zilariga to'g'ri to'rtburchakni 4 bo'lakka bo'lish topshiriladi. Bundan keyingi ish teng bo'laklarga bo'lingan ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinlini o'qitiladi. Ulushlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rtdan bir kabi o'qish va $1/2$, $1/3$, $1/4$ larga narsalarni qanday bo'lib, qancha qismi olinayotganligi orasidagi bog'lanishni hosil qilish lozim. Shu asosda surat va maxraj hamda Ulush kabi yangi terminlar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziq chizish, chiziqning pastida butunni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.

"Ulushlar" mavzusida figuralarni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi 5 ta bir xil to'g'ri to'rtburchakli qog'ozdan yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi.

Bu yo'lakchaning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga, bo'lib, ularni ustma-ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi. Unda $1/2 > 1/4$, $1/4 > 1/8$, $1/3 > 1/6$ kabi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. 3-sinfda sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz yo'lakchani olib uni ikkiga buklash topshiriladi. Yo'lakchaning

yarmi necha sm? $12/2=6$ sm. Endi yo'lakchani yana ikki buklab to'rt qismga bo'ladi. Yo'lakchaning qanday qismi hosil bo'ldi va uning uzunligi qancha? Javob: $12:4=3$ sm. $1/4$ qism. Bu ish chizg'ich yordamida ham o'lchab ko'rildi. Masala. Kitob 80 bet, o'quvchi uning $1/4$ qismini o'qidi. Necha bet kitob o'qilgan. 80 betning $1/4$ qismi qancha? $80:4=20$ bet.

1. Boshqa masalalarni yechayotganda chizmadan foydalanish yetarli: son kesma orqali tasvirlanadi, u berilgan sondagi teng bo'laklarga bo'linadi, ulushi belgilanadi, so'ngra yechishni og'zaki yoki yozma bajaradi. Masalan, $1/2$ m da, $1/4$ m da, $1/5$ m da necha sm bor? $1/2$ saotda, $1/5$ soatda, $1/6$ soatda necha minut bor?

Vaqt o'lchovlarini o'rganayotganda nima uchun "bir yarim", "chorak kam 10" deb aytishlarini tushuntirishlari kerak. Aksincha, sonning ulushiga qarab sonning o'zini topishga ham katta e'tibor beriladi. Masalan, "TU-104" samolyot $1/3$ minutda 5 km uchadi. 1 minutda necha km uchadi? $1/3$ qismi 5 km bo'lgan son necha?

$$5 \cdot 3 = 15 \text{ km}$$

2. Keyinchalik, sonni uning ulushi bo'yicha topishga doir masalalar bilan sonning ulushini topishga doir masalalar aralashtirib kiritiladi. 3-sinfda ulushni va ulushga qarab sonni topishga doir faqat sodda masalalar, 4-sinfda esa ulushga doir murakkab masalalar yechdiriladi.

1.3-§. Ulush va kasrlarning mantiqiy-didaktik tahlili.

"Ulushlar" mavzusiga asoslangan holda ulushlarning hosil bo'lish bilan 4-sinfda tanishtriladi. Bu yerda ham ko'rgazma qurol bilim berishning bosh mezoni bo'ladi. Narsalarni, shakllarni va boshqa atrofdagilarni teng bo'laklarga bo'lish va shu bo'laklardan bittasini, ikkitasini, uctasini, ... olish masalasi, uni ifodalash, va yozish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda ulush, ulushning surati, maxraji kabi terminlar bilan tanishtiriladi. Tahlil qilish jarayonida quyidagi topshiriqlarga e'tibor qaratish lozim.

1. "Ulushlar" va "Kasrlar" mavzularida yangi tushunchalarni ajrating.
2. "Ulushlar" va "Kasrlar" mavzulari orasidagi bog'lanish munosabatlarni ajrating.

3. “Ulushlar”, “Kasrlar” tushunchalari va “teng”, “katta”, “kichik” munosabatlarini shakllantirishning didaktik asoslarini ajrating.
4. II sinfda ulushlar bilan tanishishda individual foydalanish uchun geometrik shakllar to‘plamini tayyorlang.
5. Mashqlarni bajarayotgan o‘quvchilarning yo‘l qo‘yishlari mumkin bo‘lgan xatoliklarining oldini olish bo‘yicha ish olib borish uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalar tayyorlang.
6. Ulushlarni belgilashga o‘tishda o‘qituvchi yaratadigan muammoli vaziyatni topshiriqlar misolida tavsiflang.
7. Darslikdan ulushlarning hosil bo‘lish jarayonini va yozilishini mustahkamlaydigan topshiriqlarni aytib bering (shu ishni darslik uchun ham bajaring).
8. Ulushlar, kasrlar bilan tanishish jarayonidagi amaliy ishlarning vazifasini psixologiya, mantiq, pedagogika, matematika nuqtayi nazaridan baholang.
9. Toshpiriqni o‘quvchilarni “kasr” tushunchasiga olib keladigan amaliy ishlar ketma-ketligi bilan almashtiring.
10. Ulushlar va kasrlar bilan tanishishda foydalaniladigan ko‘rgazmali qo‘llanmalar turlari bilan tanishing.
11. III va IV sinf matematika darslarida “Kattalikning ulushi. Kasrlar“ o‘rnini belgilang.
12. III sinf uchun jadvallarga oid savollar ketma-ketligini yozing. Ular orasida muammoli ruhdagi savollarning tagiga chizing.
13. O‘quvchilarni sonning ulushini va ulushiga ko‘ra sonning o‘zini, sonning kasrini topishga doir masalalarni yechishga tayyorlaydigan kasrlarini ajrating.
14. Topshiriqlarga oid rasmlarda kasrlarning qaysi xossasi tavsiflanadi? Kasrlarning bu xossasidan foydalaniladigan topshiriqlarni aytib bering. U III sinfda nima uchun ko‘rgazmali asosdagina qaraladi?
15. O‘quvchilarni sonning ulushini topishga tayyorlaydigan topshiriqlarni aytib bering.
16. Darslikdan “Sonning ulushini toppish” bo‘yicha tahlil etiladigan masalalarni

ajrating.

17. Masala shartining qisqa yozuvini rasm ko‘rinishida yozing. Bu masalaning yechimini izlashchda rasmning ahamiyatini ko‘rsating.

18. Sonni uning ulushi bo‘yicha topishga oid masalalarni yechishga o‘quvchilarni tayyorlaydigan topshiriqlarni ko‘rsating.

19 Topshiriqlarning yechimini izlashni faollashtiruvchi usullarni tavsiflang

Masala. Maxraja 10 ga teng bo‘lgan ulushlarni yo‘lakchalar yordamida ko‘rsatamiz.

1/10

+									
---	--	--	--	--	--	--	--	--	--

2/10



++									
----	--	--	--	--	--	--	--	--	--

5/10

++	+	+	+	+					
----	---	---	---	---	--	--	--	--	--

Ulushlarni yozishni bajarishda quyidagi qoidaga amal qilish eslatiladi. Chiziq ostiga yozilgan son ulushning maxraji deyilib, butun narsa nechaga teng bo‘linishini ifodalaydi. Ulushning ustiga yozilgan son ulushning surati deyilib, teng qismlardan qanchasi olinganini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinfda maxraji 10 dan katta bo‘lmagan ulushlar qaraladi.

Bundan keyin ulushlarni maydarоq ulushlarga maydalash va aksincha masalalar qaraladi. Masalan, $3/4=6/8$ yoki $2/8=1/4$ larni tushuntirish uchun bir xilda yo‘lakcha olamiz va 1-sini 4 ta teng bo‘lakka, 2-sini 8 ta teng bo‘lakka bo‘lib, 1-sidan 3 ta ulushni, 2-sidan 6 ta ulushni olamiz. Bu ikkala yo‘lakchadagi yuzalar tengligi ko‘rinarli bo‘ladi. Shuningdek $2/8=1/4$ ifoda tushuntiriladi.



Sonning ulushini topishga doir masalalarni yechishda 3-sinfda o‘rganilgan sonning ulushini topish masalasi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Masala. Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesma chizilgan, $3/5$ qismi necha sm ga teng. Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesmani chizadi va uning $1/5$ ulushi necha sm ekanligini 3-sinfdan biladi. $10:5=2$ sm. So‘ngra kesmaning $3/5$ qismini topishda $2\cdot3=6$ sm ishni bajaradi, yoki birdaniga $10 : 5\cdot3=6$ sm deb bajarish ham mumkin.

Masala. Daftар 24 betlik, o‘quvchi daftarning $5/8$ qismini to‘ldiradi. Necha bet yozilmay qoldi? Masala shartining qisqacha yozuvi quyidagicha:

Bor edi - 24 bet.

Yozildi - 5/8 qismi.

Qoldi - ?

Yechish. Masalani yechishda kesma tasviridan foydalanamiz. Kesmani 24 bet deb olib, uni 8 ta teng bo'lakka bo'lamiz va uning 5 qismini ajratamiz.

1) $24:8=3$ bet

2) $3 \cdot 5 = 15$ bet

3) $24-15=9$ bet yozilmadi.

Umumiy ifoda ko'rinishda $24-24:8 \cdot 5 = 9$ bet.

4-sinf darsligida berilgan sonning Ulushini topishga doir ba'zzi masalalarni yechishda katta, murakkab ifodalar hosil bo'ladi. Bunday masalalarning yechimlarini amallarni bajarish yordamida ifodalash kerak bo'ladi. Masalan: o'ramda 240 m. sim bor edi. Shu simning 5/8 qismi ishlatildi. Qolganidan necha metr ortiq sim ishlatilgan?

Yechimning ifoda ko'rinishidagi yozuvini quyidagicha bajaramiz:

1) $240:8 \cdot 5 = 150$ m.

2) $240-150 = 90$ m.

3) $150-90 = 60$ m.

Umumiy ifodasi $240:8 \cdot 5 - (240-240:8 \cdot 5)$

Ulushlarni taqqoslashda teng to'g'ri to'rtburchaklarning tasvirlaridan ham foydalanish qulaydir. O'quvchilarga daftar-larida bo'yi 16 sm ga, eni esa 1 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizish topshiriladi. Bu bitta to'g'ri to'rtburchakka 1 sonini yozamiz. 1-to'g'ri to'rtburchak tagida shunday to'g'ri to'rtburchak chizing va uni teng ikkiga bo'ling. Qanday ulushlar hosil qildingiz? (ikkidan bir, yarim ulushlar).

Tagida shunday to'g'ri to'rtburchak chizing va uni teng to'rt bo'lakka bo'ling. har bir bo'lak nima deb ataladi va qanday son bilan ifodalanadi? 1 butunda nechta chorak (to'rtadan bir) bor? Yarimda nechta chorak bor? Shu jarayon davom etkaziladi va quyidagicha tasvirlanadi.

1								
1 / 2				1 / 2				
1/4		1 / 4			1 / 4			1 / 4
1 / 8		1 / 8		1 / 8	1 / 8	1 / 8	1 / 8	1 / 8

Quyidagi savollar beriladi: Unga javob jadvalga qarab aytildi.

1. Qaysi biri katta $1/2$ mi yoki $2/4$ mi? , $2/2$ mi yoki $4/4$ mi?
2. 1 butunda nechta $1/8$ ulush bor?
3. $>$, $<$, $=$ belgilarini qo‘ying: $3/8$, $.3/4$, $4/5$... 1 , $4/8$... $1/2$
4. Shunday sonni tanlangki tenlik yoki tengsizlik to‘g‘ri bo‘lsin.

$$5/10 = \dots /2, \quad 3/8 > \dots /4, \quad 1/2 < \dots /4$$

O‘quvchilarni ulushlar bilan tanishtirish o‘qitish dasturiga binoan ikkinchi sinfdan boshlanadi. Bunda o‘quvchilar 5 soat davomida ulushlarning hosil bo‘lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushiga ko‘ra sonning o‘zini topish bilan tanishadilar. III sinfda birning ulushlari haqidagi ma’lumotlar ancha kengaytiriladi. Bunda o‘quvchilar II sinfda qaralgan ba’zi ulushlarni hosil qilish usulini takrorlash bilan bir qatorda birning bir nechta ulushidan iborat ulushlarning hosil bo‘lish protsessi bilan tanishadilar; shu asosda o‘quvchilarda ulush butunning bir nechta ulushi to‘plamidan iborat, degan tasavvur hosil bo‘ladi.

Bu mavzuni o‘rganish ulush sonlarni o‘rganishning boshlang‘ich zvenosi bo‘ladi, shu bilan birga sonlar arifmetikasi bilan geometriya boshlang‘ich elementlari (kesma ulushi) orasidagi bog‘lovchi zveno ham bo‘ladi. Ulush tushunchasi matematikada katta rolbo‘ynovchi hamda boy amaliy tadbiqlarga ega bo‘lgan (miqdorlarni o‘lchash) miqdor tushunchasining o‘zi bilan uzviy bog‘langan. Shu sababli bu temani o‘rganishda o‘quvchilarda ulushlar haqida to‘g‘ri tasavvurlarning shakllanishini, shu tushuncha bilan bog‘liq masalalarni yechish malakalarining tarkib topishini ta’minalash muhimdir.

Ulush tushunchasini shakllantirish har xil predmetlarni teng qismlarga bo‘lishdan boshlanadi, bu predmetlarning har birini biz bir butun deb qaraymiz.

Abstrakt ulush tushunchasi, aftidan, shu konkret bo‘lishdan, sindirishdan, maydalashdan, yoyishdan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin.

Bu boshlang‘ich bosqichni o‘quvchi bir necha yil ilgari bosib o‘tgan. Maktabgacha yoshdayoq unga olmalar, pryaniklar va konfetlarni bo‘lishga; qovun va tarvuzlarni, bodring, pomidorlarni kesishga to‘g‘ri kelgan edi va o‘sha davrdayoq ko‘p marta butunning yarmi, choragi, uchdan biri va boshqa ba’zi bir ulushlari haqida gapirilgan.

Bolalarning figurani teng bo‘laklarga bo‘lish borasida to‘plagan tasavvurlari va malakalari ularda butunning ulushlari tushunchasini tarkib toptirishda asosiy boshlang‘ich tayanch bo‘ladi.

II sinfda matematika o‘qitishning asosiy maqsadi birning $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{6}$, $\frac{1}{8}$ ulushlariga oid aniq tasavvurlarni hosil qilishdan iborat.

Ulushlarni o‘rganishda ko‘rsatmalilik va ko‘rsatma quollar masalasi, ayniqla muhimdir. Ulushlarni o‘rganishning bu bosqichida o‘qitish to‘la ko‘rgazmali bo‘lishi, ayniqla zarur. Shuning uchun ulushlarning hosil bo‘lish jarayonini ko‘rilayotganligi munosabati bilan iloji boricha ko‘proq turli aniq predmetlar: olma, lenta va boshqa har xil geometrik figuralarning modellarini teng bo‘laklarga bo‘lishga doir amaliy mashqlarni ko‘proq o‘tkazish kerak.

Bolalarni ulushlar hosil bo‘lishi bilan tanishtirishga doir birinchi darsni taxminan bunday boshlash mumkin: “Bugun biz yangi sonlar bilan tanishamiz. Mening qo‘limdagi nima? (O‘qituvchi olmani ko‘rsatadi.) Qaranglar, men uni nima qilyapman? (U olmani teng ikki bo‘lakka ajratadi.) Har bir bo‘lakni nima deb atash mumkin? (Olmaning yarmi.) Buni-chi? (Butun olmani ko‘rsatadi.) Bir butun olma nechta yarimta olmaga teng? (Ikkita.)

Boshqa predmetlar bilan ish qilinganda ham o‘quvchilar shunday mulohaza yuritadilar. Masalan, suvgaga to‘ldirilgan stakan olinadi va suvning yarmi guldonga quyiladi, demak, stakanda yarim stakan suv qoladi. So‘ngra ko‘rsatmalilikni bunday tartibda qo‘llash zarur: avval doira, kvadrat, so‘ngra qog‘oz, poloskalar, chiziqlar. Bunda predmetlarni teng bo‘laklarga bo‘lish bilan bir vaqtida ularni teng bo‘lmagan bo‘laklarga bo‘lish bilan ham ish ko‘rish kerak. Masalan, doiraning bitta modelini

ikkita teng bo‘lakka, ikkinchisini umuman teng bo‘lmagan ikkita bo‘lakka bo‘lish kerak. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar doirani ikki bo‘lakka bo‘lishning usullaridan o‘xhashlik va farqni aniqlay oladilar: u holda ham, bu holda ham doira ikkiga bo‘linadi, lekin birinchi holda ikkita teng bo‘lmagan bo‘lakka, ikkinchi holda esa ikkita teng bo‘lgan bo‘lakka bo‘linadi. Ikkinci holda doira ikki bo‘lakka bo‘linadi va har bir bo‘lak doiraning S qismini tashkil qiladi, deb aytildi.

Geometrik figuralar nabori bilan ishlanayotganda o‘quvchilar bu figuralarning ko‘p xossalari qaytaradilar va yana ko‘p xossalari bilan tanishadilar. Masalan, kvadratlarni teng to‘rt bo‘lakka bo‘lishda o‘quvchilar bu topshiriqnini bajarishning ikkita usuli mavjudligini oson payqaydilar. Ular kvadrat tomonlari va burchaklari o‘zaro tengligiga yana bir bor ishonch hosil qiladilar, kvadrat simmetriyasi haqida birinchi tasavvurga ega bo‘ladilar.

Bu mashqlarni bajarishda doskaga chiqarilgan bitta yoki ikkita o‘quvchigina qatnashib boshqa bolalar passiv kuzatuvchi bo‘lib qolmasligi maqsadida sinfnинг barcha o‘quvchilari aktiv ishtirok etishlari juda muhim. O‘quvchilarning butun fikr-zikri figuralarni teng bo‘laklarga bo‘lish jarayoniga qaratilgan bo‘lishi uchun har bir o‘quvchiga qolozdan qirqilgan doiralar, to‘g‘ri to‘rtburchaklarni tayyorlab qo‘yish kerak.

Turli figuralarni teng bo‘laklarga bo‘lishda va bunday bo‘laklarning bittasidan, ikkitasidan va hokazodan iborat, figuralarni o‘rganish Ulush sonlarni belgilash uchun zarur bo‘lgan terminologiya va simvolikani kiritishga imkon beradi. Shunday qilib, ulushlarni hosil qilish jarayonini namoyish qilishda bolalar e’tiborini ulushlar o‘z nomlarini qanday printsipda olishlariga qaratish zarur - ulush ulushlarining nomlari bilan predmet necha teng bo‘lakka bo‘linishi orasidagi bog‘lanishni o‘rganish zarur.

Bolalarni turli ulushlarning nomlari va hosil bo‘lishi bilan tanishtirib bo‘lgach, ularga har bir ulushni qanday belgilashni ko‘rsatish zarur. 1/2, 1/4, 1/3 va boshqa ko‘rinishdagi yozuvlar bilan “surat” va “maxraj” terminlarini kiritmasdan tanishtiriladi. O‘qituvchi ikkidan bir ulushni belgilashni talab qilsa, buning uchun o‘quvchilar chiziq chizishadi va chiziq ostiga ikkini, chiziq ustiga birni yozishadi.

Bolalarni ulushlarni yozish bilan “Ulushlar” temasining birinchi darsidayoq tanishtirish lozim.

Figuralarni teng bo‘laklarga amaliy bo‘lish asosida ulushlarni taqqoslash ham o‘tkaziladi. O‘qituvchi masalan, 5ta bir xil to‘g‘ri to‘rtburchakli poloska qirqishni taklif qiladi.

O‘quvchilarda kerakli miqdorda to‘g‘ri burchakli poloskalar tayyor bo‘lgandan keyin poloskalardan birini ikkita teng qismga, ikkinchisini teng uchga, uchinchisini teng to‘rtga, to‘rtinchisini teng oltiga, beshinchisini teng sakkizga bo‘lish taklif qilinadi. Bolalar ulushlardan eng kattasi yarim, eng kichigi esa sakkizdan bir ekanini, ya’ni masalan, $1/2 > 1/4$; $1/3 > 1/8$; $1/3 > 1/6$; va hokazo ekaniga ishonch hosil qiladilar.

Shunday qilib, o‘quvchilar figuralarni teng bo‘laklarga amaliy bo‘lish yo‘li bilan ulushlarni taqqoslaydilar. Ulushlarni amaliy taqqoslashda to‘g‘ri burchakli poloskalar bilan bir qatorda doiralardan ham, kvadratlardan ham, boshqa geometrik figuralardan ham foydalanish zarur. Turli ulushlarni faqat buklash yoki qirqish bilangina emas, balki bo‘yash orqali ham hosil qilish mumkin.

Ikkinci sinfdan bolalarni sonning ulushini topishga va ulushiga ko‘ra sonning o‘zini topishga doir masalalarni yechish bilan tanishtirish kerak.

